

## **Talabalarga talablar**

Kuni kecha 28-fevralda “Iqtisodiyot va menejment” fakulteti talabalari bilan fakultet dekani O.Kucharov, dekan muovinlari J.Turdiyev va U.Alimov, fakultet yoshlar yetakchisi M.Rahmatova va guruh rahbarlari ishtirokida talabalar bilan uchrashuv o`tkazishdi.

Muloqot davomida zamon talabiga javob beradigan talaba qanday bo`lishi kerak, hozirda yurtimizda, institutimizda qanday o`zgarishlar bo`layotgani, yoshlarga oid davlat siyosatining zaruriy qisqacha mazmuni, tanqidiy-tahliliy mulohazalar va boshqa masalalar haqida aytib o`tildi.

Shuningdek, fakultet yoshlar kengashi tomonidan o`tkazilayotgan loyihalar, musobaqalar, seminarlar haqida, jumladan Davlar stipendiyasi bo`yicha o`tkaziladigan targ`ibot tadbiri, eng yaxshi guruh va eng yaxshi guruh yetakchisi tanlovlarning o`tkazilish tartibi bilan o`rtoqlashishdi.

Tadbir davomida fakultet talabalarining tanlama kuzatuv asosida o`rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi o`sishi monitoringi natijalariga ko'ra eng ijobiy natija ko'rsatgan talabalar, yosh kitobxon tanlovi g`oliblari va superyetakchi tanlovingning 1- mavsumi g`oliblari taqdirlandilar!



Bu kabi talabalar bilan o`tkazilgan dildan suhbatlar ularga yangi boshlangan yarimyillikda yanada faol bo`lishga ruhlantiradi, ta`lim sifatiga ijobiy ta`sir etadi.

**“Iqtisodiyot va menejment” fakulteti talabalari kengashi sardori**

**Jahongir Saidahmedov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**